



**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2025-yil, 12-13-noyabr

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE
PHILOLOGY AND TRANSLATION
STUDIES”**
international scientific and practical conference
November 12-13, 2025



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

2025-yil, 12-13-noyabr

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ALISHER NAVO‘I TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

THE DEPARTMENT OF “TRANSLATION THEORY AND PRACTICE”

Proceedings of the International Scientific and Practical Conference titled

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY
AND TRANSLATION STUDIES”**

November 12-13, 2025

Tashkent – 2025

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 “Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2025. – 889 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas’ul muharrir:
Shuhrat SIROJIDDINOV

akademik

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori

Tahrir hay’ati:

Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Zuhridin Isomiddinov (O‘zbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italiya), Gabriela Shtoecli (Shveytsariya), Qosimboy Mamurov (O‘zbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Misr), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Yurgen Yakob Beker (Germaniya), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Xurram Raximov (O‘zbekiston), Natalya Filimonova (Rossiya), Nedim Bakirci (Turkiya), Farhad Rahimi (Eron), Xayrulla Hamidov (O‘zbekiston), Elmira Adilbekova (Qozog‘iston), Sag‘inbek O‘rinboev (Qirg‘iziston), Zulxumor Xolmanova (O‘zbekiston), Mahmadiyor Asadov (O‘zbekiston), Ziyodaxon Teshaboyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Islomjon Yakubov (O‘zbekiston), Nargiza Rashidova (O‘zbekiston), Sabohat Qahharova (O‘zbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (O‘zbekiston,) Nigora Sulaymonova (O‘zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O‘zbekiston), Dostonbek Ahmadov (O‘zbekiston), Dilnoza Shonazarova (O‘zbekiston).

Mazkur xalqaro konferensiya materiali filologik komparativistika va tarjimashunoslikning dolzarb nazariy hamda amaliy masalalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yoritishga bag‘ishlanadi. To‘plamda turli milliy adabiyotlar, tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, adabiyotlararo aloqalar, qiyosiy-tipologik va qiyosiy-genetik tadqiqotlar, badiiy va maxsus matnlarni tarjima qilish muammolari, tarjima strategiyalari va ekvivalentlik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, konferensiya materiallarida tarjima nazariyasining zamonaviy konsepsiyalari, tarjimon kompetensiyasini shakllantirish, tarjimoni o‘qitish metodikasi, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda globallashuv sharoitida tarjimaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati kabi masalalar keng yoritiladi. Ilmiy maqolalar filologik komparativistika va tarjimashunoslik sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanlararo integratsiyani kuchaytirishga hamda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 17-dekabrda 6-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on the topic
“Problems of comparative philology and translation studies”. – Tashkent, 2025. – 889 p.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:

Shuhrat SIROJIDDINOV

Academician

Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Editorial Board:

Nozliya Normurodova (Uzbekiston), Zuhridin Isomiddinov (Uzbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italy), Gabriela Stöckli (Switzerland), Qosimboy Mamurov (Uzbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Egypt), Uzok Djoraqulov (Uzbekiston), Gulnoz Khallieva (Uzbekiston), Jürgen Yakob Beker (Germany), Kemal Yavuz Ataman (Turkiye), Khurram Rakhimov (Uzbekiston), Natalya Filimonova (Russia), Nedim Bakirci (Turkiye), Farhad Rahimi (Iran), Khayrulla Hamidov (Uzbekiston), Elmira Adilbekova (Kazakhstan), Sag‘inbek O‘rinboev (Kyrgyzstan), Zulxumor Xolmanova (Uzbekiston), Mahmadiyor Asadov (Uzbekiston), Ziyodakhon Teshaboyeva (Uzbekiston), Dilnavoz Yusupova (Uzbekiston), Islomjon Yakubov (Uzbekiston), Nargiza Rashidova (Uzbekiston), Sabohat Qahharova (Uzbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (Uzbekiston,) Nigora Sulaymonova (Uzbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekiston), Dostonbek Akhmadov (Uzbekiston), Dilnoza Shonazarova (Uzbekiston).

This international conference articles are dedicated to illuminating the current theoretical and practical issues in philological comparativistics and translation studies based on the modern scientific approaches. The collection analyzes of mutual influences between different national literatures, languages and cultures; interliterary connections; comparative-typological and comparative-genetic studies; the issues of translating literary and specialized texts; translation strategies and problems of equivalence. Furthermore, the conference materials extensively cover the topics such as: contemporary concepts in translation theory, the formation of a translator competence, methodologies for teaching translation, intercultural communication and socio-cultural significance of translation in the context of globalization. The given scientific articles are intended to scientists, researchers, doctoral students, master’s students and undergraduate students who actively working in the fields of philological comparativistics and translation studies and they serve to strengthen interdisciplinary integration as well as to ensure the harmony between theory and practice.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on December 17, 2025.

SHEKSPIRNING “VENETSIYA SAVDOGARI” ASARIDA KOMIK ADOLAT VA AXLOQIY KINOYA

*Bahodir Absamadov,
Turon universiteti o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqola Uilyam Shekspirning Venetsiya savdogari asarida komedik janr vositalari orqali qanday qilib murakkab axloqiy va huquqiy muammolar sahnalashtirilishini tahlil qiladi. Asarda “komedik adolat” (comic justice) va “axloqiy ironiya” (moral irony) dramatik vosita sifatida nafaqat personajlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni yoritadi, balki tomoshabin va o‘quvchini ham tanqidiy axloqiy baholashga undaydi. Tadqiqotda Sheylokning qonuniy talablari va Portia tomonidan taqdim etilgan “adolatli” yechim o‘rtasidagi ziddiyat asosiy tahlil nuqtasi sifatida qaraladi. Asar sud sahnasida kulgining orqasida yashiringan ijtimoiy, huquqiy va axloqiy noaniqliklar ochib beriladi. Ishda Hu (2021) tomonidan taklif etilgan kinoya nazariyasi, Moorening (2023) xarakter markazli yondashuvi va Willsonning (2014) adolat kontseptsiyasi asosida tahlil olib boriladi. Shuningdek, Jamol Kamol tomonidan qilingan o‘zbekcha tarjimada ironik kontekstlarning qanday o‘zgarishi va madaniy moslashuvi ham qisqacha tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: komedik adolat, axloqiy ironiya, Venetsiya savdogari, Portia, Sheylok, sud sahnasi, dramatik kinoya, tarjima, madaniy kontekst, adabiy tahlil.

Abstract. This paper explores how William Shakespeare’s *The Merchant of Venice* stages complex moral and legal dilemmas through the tools of comic genre. The notions of comic justice and moral irony are not only dramatized through character conflicts, but also challenge the audience and readers to engage in critical moral judgment. The analysis focuses on the tension between Shylock’s lawful claims and Portia’s seemingly “just” resolution, revealing how courtroom scenes conceal deep ethical and ideological contradictions beneath the structure of comedy. The study draws on Hu’s (2021) theory of irony, Moore’s (2023) character-centered approach, and Willson’s (2014) interpretation of justice in Shakespeare’s plays. It also briefly examines how Jamol Kamol’s Uzbek translation reconfigures the play’s ironic and cultural elements for a local readership.

Keywords: comic justice, moral irony, *The Merchant of Venice*, Portia, Shylock, courtroom scene, dramatic irony, translation, cultural adaptation, literary analysis.

Kirish. Uilyam Shekspirning Venetsiya savdogari asari janr nuqtayi nazaridan ko‘p qirrali bo‘lib, odatda “komediya” deb tasniflansada, unda fojia, huquqiy mojarolar va axloqiy murakkabliklar singari qatlamlar mavjud. Asar ilk bor 1600 yilda nashr etilgan bo‘lib, Shekspirning komedik dramaturgiyasidagi muhim namunalaridan biri sanaladi. Ammo zamonaviy tadqiqotchilar ushbu tasnifga ehtiyotkorlik bilan yondashadilar. Asarda “komedik adolat” (comic justice) elementi muhim dramatik vosita sifatida ishlatiladi: adolat o‘z holicha tantana qilmaydi, balki kulgi, kinoya va ironik burilishlar orqali ifodalanadi [Willson, 2014:695]. Shakespeare komediyalarida adolat odatda nikoh, yarashuv yoki murosa orqali tiklanadi. Biroq Venetsiya savdogari komediyasi bu sxemani murakkablashtiradi: Portia tomonidan Sheylok ustidan chiqarilgan hukm tashqi tomondan qonuniy va adolatli ko‘rinsada, ichki mohiyatda axloqiy jihatdan bahsli va ironiyaga boydir [Nisker, 2006:257]. Aynan shu qarama-qarshilik ya’ni komedik dramatism orqali ifodalangan axloqiy ikkilanishlar ushbu tadqiqotning markaziy nuqtasini tashkil etadi.

Ushbu ilmiy ishning maqsadi Shekspirning Venetsiya savdogari asarida “komedik adolat” va “axloqiy ironiya” vositalari qanday ifodalanganini, ularning o‘zaro munosabati orqali qanday ijtimoiy, huquqiy va axloqiy savollar ko‘tarilishini tahlil qilishdir. Ayniqsa, dramatik burilishlar va personajlar (xususan Sheylok, Portia va Antonio) orqali ushbu tushunchalar qanday dramatik va axloqiy zamin olgani ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot doirasi sifatida asarning asosiy dramatik sahnalari, ayniqsa sud jarayoni sahnasi (IV parda, I sahna) markazga olinadi. Uslubiy jihatdan ish asosan kontekstual tahlil, harakter markazli yondashuv [Moore, 2023], va zamonaviy adabiy-tanqidiy manbalar asosida quriladi. Shu bilan birga, Hu [Hu, 2021:671-672] tomonidan taklif etilgan bevosiya (literal irony), vaziyatli (situational irony) va dramatik (dramatic irony) kinoya nazariyalaridan

foydalaniladi. Asarning o‘zbek tiliga Jamol Kamol tomonidan qilingan tarjimasi [Shakespeare, tarj. Kamol, 2012] esa ayrim kontekstual joylarda tahlilni boyitish maqsadida qisqacha ko‘rib chiqiladi.

Asosiy qism. Komediya janrining o‘ziga xosliklari va adolat talqini. Komediya janrida “adolat” tushunchasi ko‘pincha kulgi, xato va yarashuv vositalari orqali ifodalanadi. Masalan, tadqiqotchilar David va Rostonlarning yozishicha:

“Comedy ... most clearly illustrates poetic justice by rewarding good and punishing bad characters.” [David, 2015:176; Roston, 2011:111].

Bu yerda komediyada “yaxshi qahramonlarga mukofot, yomonlarga jazo” shaklida adolat ko‘rinishi an’anaviy element sifatida keladi. Venetsiya savdogari asarida ham janr jihatdan an’anaviy komediya unsurlari – hazil, xatoliklar va oxirida mos juftlikning birlashuvi (fair-match), masalan, nikoh orqali yarashuv ishlatilgan. Biroq Shekspir bu unsurlarni huquqiy tortishuv, intiqom va adolat muammolari bilan uyg‘unlashtiradi. Ya’ni, oxirida “hammasi yaxshi bo‘ldi” talqini o‘rniga, adolat “faqat mukofot yoki jazo emas”, balki tizim, qoidalar va ularning ishlash tartibining ham muhimligini ko‘rsatadi. “Venetsiya savdogari” pyesasi oddiy romantik komediyalarga qaraganda murakkabroq: unda huquqiy drama va axloqiy dilemma qatlamlari ham mavjud. Shu nuqtai nazardan, pyesa ko‘pincha “muammo pyesasi” (problem play) deb ham ataladi [Brittes, 2019:3].

Shunday qilib, asardagi “komedik adolat” (comic justice) tushunchasi tadqiqotchi Josh Nisker tomonidan asardagi formal pozitivizm va tabiiy qonun (natural law) farqi orqali adolatning murakkabligini ko‘rsatadi:

“Ostensibly, The Merchant of Venice dramatizes the dangers of rigid adherence to formalism and the triumph of natural law through Portia’s legal defeat of Shylock” [Nisker, 2006:259]

“Bir qarashda, Venetsiya savdogari asari huquqiy formalizmga ko‘r-ko‘rona sodiqlikning salbiy oqibatlarini hamda Portianing Sheylok ustidan qonuniy g‘alabasi orqali tabiiy huquqning ustuvorligini dramatik tarzda namoyon etadi [Nisker, 2006: 259]. Demak, sud sahnasida tizimdagi qoidalar insoniy axloqiy talablarga qarshi turadi, bu esa oddiy komediya sxemasini sinovdan o‘tkazadi.

Michael J. Willson Venetsiya savdogari pyesasida namoyon bo‘ladigan adolat konsepsiyasi haqida fikr yuritar ekan, komedik yakun shaklida berilgan “g‘alaba”ning axloqiy jihatdan murakkab va bahsli bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Portia tomonidan Sheylok ustidan chiqarilgan hukm tashqi tomondan qonuniy asoslangan va kulgili dramatik yechim sifatida ko‘rinadi. Biroq ushbu “adolat”ning qanday amalga oshgani, ya’ni huquqiy manipulyatsiya, shakliy qoidalarni buzmasdan, ammo axloqiy jihatdan savol ostida qoluvchi uslubda, uni shubha ostiga qo‘yadi [Willson, 2014]. Bu yerda komediya janrining o‘ziga xosligi va adolat talqini bir-biri bilan chambarchas bog‘liq: hazil va yarashuv bilan yakunlanish ehtimoli mavjud bo‘lsa-da, asarda adolat masalasi faqat kulgi bilan yengilmasdan, huquqiy va axloqiy savollarni ham ko‘taradi. Megan Moore tomonidan taklif etilgan harakter markazli tahlil uslubi bu murakkablikni aniqlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, komediya janrida adolat talqini ikki qirrali: bir tomondan, kulgi, o‘yin va yarashuv mavjud, boshqa tomondan, huquqiy va axloqiy murakkabliklar bor. Venetsiya savdogari asari ana shu murakkablikni adolat va axloqiy savollar bilan bog‘liq tarzda, komedik vositalar orqali sahnaga olib chiqadi. Shu bois, tadqiqotimizda “komedik adolat” va “axloqiy ironiya” tushunchalari nafaqat adabiy-dramatik kontekstda, balki ijtimoiy va huquqiy jihatdan ham tahlil qilinishi lozim.

Axloqiy ironiya va uning dramatik vosita sifatida qo‘llanishi. Axloqiy ironiya – bu asarda personajlar, voqealar yoki so‘zlar orqali tashqi ko‘rinishda “to‘g‘ri” bo‘lib tuyulgan, lekin mazmunan murakkab, hatto qarama-qarshi axloqiy ma’noga ega bo‘lgan holatdir. Venetsiya savdogari pyesasida tashqi hukmlar va ichki axloqiy qarorlar orasidagi tafovut ko‘p bora namoyon bo‘ladi. Tadqiqotchi Xiao-min Hu bu pyesada bevosita (literal irony), vaziyatli (situational irony) va dramatik

(dramatic irony) ironiyaning uch shakli mavjudligini aniqlaydi, jumladan “dramatic irony” sahnasida tomoshabin bilgan, lekin personaj bilmagan axloqiy yechimlar mavjud ekanligini ta’kidlaydi [Hu, 2021:673]. Misol uchun, sud jarayonida Portia “Baltazar” rovida nutq qilarkan, tomoshabin uning asl shaxsini biladi, sud majlisi boshqa qatnashuvchilar bilmaydi. Bu yerda dramatik ironiya orqali adolat tashqi jihatdan amalga oshayotgandek tuyuladi, ammo ichki axloqiy jihatdan yo‘qolgan savollarni qoldiradi. Bundan tashqari, vaziyatli (situatsional) ironiya sifatida, Sheylok o‘z hukmini “a pound of flesh” (1 funt et) ni talab qilgan holda amalga oshirishga intiladi, lekin oxirida u o‘z mulki va imonidan mahrum bo‘ladi. Hu bu holatni “Sheylokning intiqomi muvaffaqiyatsiz tugaydi” deb ta’kidlaydi [Hu, 2021:674]. Shu tarzda tashqi jihatdan “adolat amalga oshdi” kabi tuyulsada, ichki axloqiy adolat emasligi seziladi. Bu esa axloqiy ironiyaning markaziy xususiyati. Axloqiy ironiya, shuningdek, pyesada personajlarning so‘zlari va ularning haqiqatda qilayotgan harakatlari orasidagi tafovut orqali ham ifodalanadi. Masalan, Portia rahm so‘raydi, lekin Sheylok uchun kechirim ko‘rsatilmaydi. Bu yerda so‘z va harakat orasida axloqiy kontrast paydo bo‘ladi. Shunday qilib, axloqiy ironiya dramani faqat kulgili yechimga olib kelmaydi, balki u tomoshabinni adolat, rahm-shafqat va huquqiy mas’uliyat savollari bilan yuzma-yuz qiladi.

F. Whigham Sheylokning asl maqsadi Antonio ustidan intiqom olish ekanligini quyidagicha ifodalaydi: “the law deconstructs itself, for Shakespeare’s audience if not for Shylock” [Whigham, 1979:100]. Bu bilan qonun ustuvor bo‘lib ko‘rinsa-da, uning ijrosi orqali adolat emas, balki axloqiy ziddiyat yuzaga keladi. Sud sahnasida Portia o‘zini erkak advokat sifatida tanitib, Sheylokka qarshi chiqadi va qonuniy tafsilotlar asosida uni mag‘lub qiladi. Garchi Portia “adolatli” qaror chiqarayotgandek ko‘rinsa-da, bu qaror Sheylokning mulkidan mahrum qilinishi va majburiy ravishda nasroniylikni qabul qilishga majburlanishi bilan yakunlanadi. Bu esa adolat timsoli ostida amalga oshgan intiqomga o‘xshaydi va komediyaviy “adolat”ning axloqiy asoslari borasida jiddiy savollar tug‘diradi. Bu holat “ijtimoiy-iqtisodiy adolat” tamoyillariga zid tarzda amalga oshadi, chunki Sheylok kuchli ijtimoiy qatlam tomonidan jazolanadi. Komediya janri vositalari – maskarad, kinoya, kulgi – bu jarayonni yumshatadi, biroq mohiyatda jazolash va tahqir mavjud bo‘lib qoladi. “Adolatli hukm” komedik uslubda ishlatilsada, uning axloqiy va huquqiy asoslari aniq emas. Bu asarda adolat – faqat qonun me’zonida emas, balki uning qanday tatbiq etilgani, kim foyda ko‘rganligi va kim jabr ko‘rganligi nuqtai nazaridan ham baholanadi.

Sheylok va sud jarayoni sahnasi orqali tomoshabin hukm chiqaruvchi sifatida faol rolda turadi. Pyesa tomoshabinni “kim haq, kim emas?” degan savol bilan yuzma-yuz qiladi. Josh Nisker ta’kidlashicha, pyesa “ultimately ... calls upon the audience to ‘judge the judge’” [Nisker, 2006: 262]. Bu bilan tomoshabin oddiy kulgi yoki yarashuvdan ko‘ra chuqurroq axloqiy bahoga chaqiriladi, ya’ni sud zalida qanday hukm chiqdi va kim foyda ko‘rdi, kim esa zarar ko‘rdi – bularni tomoshabin o‘z fikrida qayta ko‘rib chiqadi.

Tarjima masalasi. Uilyam Shekspirning Venitsiya savdogari asarini o‘zbek tiliga Jamol Kamol tomonidan mahorat bilan tarjima qilingan. Ushbu tarjima, garchi asosan poetik va dramatik mazmuni uzatishga yo‘naltirilgan bo‘lsada, ayniqsa iroiya va kulgi elementlarining o‘zbek tilida qanday “qayta tug‘ilishi” masalasida muhim kuzatishlar beradi. Jamol Kamol o‘z tarjimasida personajlarning so‘z ohanglari, kinoya va teskari ma’nodagi hazillarini o‘zbek adabiy tili vositalarida imkon qadar tabiiy va madaniy jihatdan mos tarzda ifodalaydi. Masalan, Portia sud jarayonida aytgan kinoyali so‘zlari, yoki Gratiano va Bassanio kabi personajlarning quvnoq, ba‘zan qo‘pol iboralari tarjimada madaniy filtrlash orqali yumshatilgan. Bu esa milliy axloqiy norma va til estetikasi nuqtai nazaridan tushunarli holatdir. Tarjimaning maqsadi – to‘g‘ridan-to‘g‘ri komedik ta’sirni qayta ishlab chiqarish emas, balki asar ruhini, personajlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni va eng muhimi, asardagi axloqiy-kinoyaviy kontrastlarni milliy mentalitet bilan moslashtirilgan holda yetkazish bo‘lganini

sezish mumkin. Shu ma’nod, tarjimada asardagi “komedik adolat” va “axloqiy ironiya” elementlari o‘z shaklini o‘zgartiradi: ular ba’zan susayadi, ba’zan esa yangi semantik tus oladi. Bu esa tarjima orqali asarning yangi ijtimoiy-madaniy kontekstdagi qabul qilinish shaklini ko‘rsatadi.

Xulosa. Uilyam Shekspirning Venetsiya savdogari asari janr jihatidan komediya bo‘lishiga qaramay, unda adolat, intiqom va axloqiy murakkabliklar singari jiddiy muammolar ko‘tariladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, asarda komedik adolat tashqi ko‘rinishda murosaga o‘xshab ko‘rinsa ham, ichki mohiyatda kuchli axloqiy ironiya bilan yo‘g‘rilgan. Sheylokning qonuniy talablari va Portia tomonidan chiqarilgan hukm shaklan adolatli tuyuladi, biroq bu jarayonda huquq manipulyatsiya qilinadi, natijada “g‘olib” tomonning ustunligi axloqiy jihatdan shubha ostida qoladi. Bu esa komedik yechim ortida jiddiy savollarni yashiradi: kim haq, kim emas?, adolat kim uchun ishlaydi? Tomoshabin va o‘quvchi ushbu pyesada nafaqat voqealarning kulgili tafsilotlari orqali, balki ularning ostidagi dramatik va ijtimoiy ziddiyatlar orqali ham fikr yuritishga majbur bo‘ladi. Komediya vositalari orqali ilgari surilgan hukmlar, shakli bilan kulgi uyg‘otsada, mazmun jihatidan o‘quvchini noqulay axloqiy pozitsiyaga olib keladi. Jamol Kamol tarjimasi orqali asarning o‘zbek tilidagi talqini ham bu kinoyaviy qatlamlarning muayyan darajada saqlanishi va milliy madaniyatga mos tarzda “qayta tug‘ilishi”ni ko‘rsatdi. Umuman olganda, Venetsiya savdogari asaridagi komedik adolat va axloqiy ironiya zamonaviy o‘quvchiga faqat kulgi emas, balki tanqidiy fikrlashni ham taqdim etadi. Pyesa shunchaki ko‘ngilochar emas, balki axloqiy pozitsiyalar va ijtimoiy tizimlar ustidan o‘ylashga chorlaydigan murakkab asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brittes, L. (2019). The Merchant of Venice as a problem play: a critical reflection of its ambiguous nature. In I Congreso Internacional de Ciencias Humanas, Argentina. Retrieved from <https://www.academica.org/1.congreso.internacional.de.ciencias.humanas/1539.pdf>
2. David F. (2015) Poetic (In)Justice in Comedy. Connotations, 25(2), 175-197 Retrieved from https://www.researchgate.net/publication/313895985_Poetic_InJustice_in_Comedy
3. Hu, X. (2021). A study of irony in The Merchant of Venice from speech act theory. Journal of Literature and Art Studies, 11(9), 671–676. David Publishing. <https://www.davidpublisher.com/Public/uploads/Contribute/61763c81db994.pdf>
4. Moore, M. (2023). “Every Man Must Play a Part”: A Character-Centered Approach to The Merchant of Venice. Bridgewater College. https://vc.bridgew.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1653&context=honors_proj
5. Nisker, J. (2006). The (comic) tragedy of formalism in Shakespeare’s The Merchant of Venice. Dalhousie Journal of Legal Studies, 15 (9), 257–272. <https://digitalcommons.schulichlaw.dal.ca/cgi/viewcontent.cgi?article=1248&context=djls>
6. Roston, M. (2011). The comic mode in English literature: From the middle ages to today. Continuum International Publishing Group.
7. Shakespeare, W. (1983). Venetsiyalik savdogar (J. Kamol, Tarjima). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. [https://n.ziyouz.com/books/jahon_dramaturgiyasi/Vilyam%20Shekspir.%20Venetsiya%20savdogari%20\(komediya\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/jahon_dramaturgiyasi/Vilyam%20Shekspir.%20Venetsiya%20savdogari%20(komediya).pdf)
8. Shakespeare, W. (1998). The Merchant of Venice. Project Gutenberg. <https://www.gutenberg.org/cache/epub/1515/pg1515-images.html>
9. Whigham, F. (1979). Ideology and class conduct in The Merchant of Venice. The University of Chicago Press, 10, 93–115.

10. Willson, M. J. (2014). View of justice in Shakespeare’s The Merchant of Venice and other plays. Notre Dame Law Review, 70(3), 695–726.
<https://scholarship.law.nd.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1942&context=ndlr>

11. Жўракулов, У. (2023). Эзотерик тафаккур универсалияси: Навоий, Шекспир, Гёте. “ShARQ-U G‘ARB: NAVOIY VA GYOTE” мавзуидаги халқаро илмий-назарий конференция материаллари, 2023-йил, 21-июн. Тошкент: “Nurafshon business”, 8, 30.

12. Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари: муаллиф. Жанр. Хронотоп //Тошкент: Фафур Гулом. – 2015. – Т. 353.

MUNDARIJA		
I SHO‘BA. TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI		
1.	Zuhriddin ISOMIDDINOV. Bizdagi tarjima muammolari	5
2.	Uzoq JO‘RAQULOV. O‘zbek tarjimachiligi istiqbollari	9
3.	Xurram RAHIMOV. Alisher Navoiyning “Munojot” asari tarixi, tabdili va tarjimalari xususida	14
4.	Олимджон КАСИМОВ, Мартаба СУЛТОНЗОДА. Некоторые лингвистические особенности перевода лексем «Шахнаме» на русский язык	17
5.	Ne‘matilla OTAJONOV. Eiji Mano – boburshunos olim	22
6.	Rukhsana IFTIKHAR. Beautification of Mughal women	26
7.	Наталья ФИЛИМОНОВА. Возможности перевода при работе иностранных учащихся с художественным текстом: начальный этап изучения русского языка	30
8.	Kosimboy MAMUROV, Nargiza TILAKOVA Functional syntax and mystical semantics: correlating syntaxemes with sufi concepts in Alisher Navai’s Uzbek and English ghazals	34
9.	Xayrulla HAMIDOV. Muslimbek Yo‘ldoshevning tarjimonlik mahorati	38
10.	Ирода СИДДИКОВА. К вопросу взаимосвязи психолингвистики и художественного перевода	43
11.	Xayrulla HAMIDOV, Zulfizarxon QORAXO‘JAYEVA. Nafisiyning “Jannatning yarim yo‘lida” asaridagi personaj portretining tarjimada berilishi	46
12.	Абдумажид МАДРАИМОВ, Аскарый МАДРАИМОВ. Вопросы перевода научного наследия Захириддина Мухаммада Бабура и традиция перевода в библиотеке Акбара в XVI веке	51
13.	Supriya BANERJEE, Iroda UMAROVA Reimagining classics: Tagore, translation and the global reader	54
14.	Ziyodaxon TESHABOYEVA. “Boburnoma”da milliy-madaniy xususiyatli til birliklar va ularning inglizcha tarjimalari	58
15.	Zulhumor MIRZAEVA. Politics under the mask of poetics: Chulpon’s translations in the 1920s-1930s	62
16.	Abdumajid MAMADALIYEV. Badiiy matn tarjimasida milliy koloritni ifodalash muammosi	72
17.	Muhammadjon ABDUVALIYEV. Sinxron tarjimashunoslikning zamonaviy masalalari	74
18.	Мұратбек БАҒИЛА, Кәмшат АЙМАҒАМБЕТОВА. Қазақ тілін оқыту әдістемесінің жаңа парадигмалары	80
19.	Shermurod SUBHON. Ijodiy kengashlarda	84

20.	Shermurod SUBHON. Kitobxon oldida mas’uliyat	97
21.	Murtazo SAYDUMAROV, Mahmudaxon SAYDUMAROVA. O‘zbek adabiyotining ilk romani tarjimalarida lingvomadaniy xususiyatlar va semantik o‘zgarishlar	100
22.	Mahmadiyor ASADOV. Tarjima – qiyosiy adabiyotshunoslikning tadqiqot obyekti	107
23.	Toshtemir ALIMOV. Gender as a linguistic and cultural parameter in literary translation	113
24.	Tozagul MATYOQUBOVA. Ilk hasbi hol qasida va uning o‘zbek tarjimoni	116
25.	Dilafruz MUHAMMADIYEVA. “Boburnoma”ning turkcha tarjimasi bilan bog‘liq muammolar	120
26.	Umida TURAeva. Some challenges of translating forensic terminology between English and Uzbek	125
27.	Елена ПАНОВА. Мифопоэтическая традиция и проблемы перевода и функционирования онимов в волшебной повести «Алиса в стране чудес» Л. Кэрролла	128
28.	Gulnoz MAMARASULOVA. Siyosiy matn tarjimasining lingvokulturologik jihatlari	137
29.	Эльнора БАГАВОВА. Эволюция переводческих теорий: от традиционных подходов к современным тенденциям	140
30.	Dilfuza KHUDAIBERDIEVA. Translation studies: traditional and modern approaches	144
31.	Gulnoz MAMARASULOVA, Ruxshona CHO‘LIYEVA. Diplomatik matnlarning tarjimada ifodalanishi	148
32.	Dilshod AMIRQULOV. Tarjimashunoslikda til tipologiyasi asosida komparativ yondashuv	151
33.	Tozagul NASRULLAEVA. Literary translation as interpretation: on the basis of Dreiser’s literary works	154
34.	Мохира ЭШКУВАТОВА, Достонбек АХМАДОВ. Роль лингвострановедческого компонента в обучении переводу	156
35.	Islom TURDIYEV. Ingliz va o‘zbek tillaridagi ayrim ish yuritish terminlarining tarjima talqinidagi muammolari	160
36.	Фотима УМИРЗАКОВА. Проблемы традиционных и современных подходов в немецком переводе	163
37.	Shohsanam BEKMURATOVA. Maqollar tarjimasida tarjimonlarining lingvomadaniy yondashuvlari	166
II SHO‘BA. QIYOSIY TILSHUNOSLIK MASALALARI		
38.	Sayed Mohamed Ahmad KORAYEM. Principles for developing comparative linguistic studies	171
39.	Nedim BAKIRCI. Milli kimlik inʼsasında halk biliminin işlevi	183
40.	Farhad RAHIMI. Beş, bel, bilek, elik/ el ve ilik kelimelerinin etimolojik ve anlamsal bağlantilari	190

41.	Farhad RAHIMI. Nezirali'nin Çağatay türkçesi sözlüğünün yanlışları üzerine iii	196
42.	Сырга ОРУНБАЕВА, Долон МАЛДЫБАЕВ, Сагынбек ОРУНБАЕВ, Минаим МЫРЗАКМАТОВА, Жумакадыр КАРАМОЛДОЕВ. Горы и их лингвистические особенности: типология высот и культурных различий	215
43.	Saodat MUHAMMEDOVA, Kosimboy MAMUROV. Reforming the Uzbek latin alphabet: balancing phonology and global usability	221
44.	Jamoliddin YOQUBOV. O‘zbek va fransuz tillarida “ona” leksemasi ifodalanishining lingvomadaniy xususiyatlari	223
45.	Valijon VOSITOV. Inkor kategoriyasi lingvistik voqelik sifatida	228
46.	Khushnuda SAMIGOVA. Identifying the semantic component of affectionate form	230
47.	Nargiza DOSBAYEVA. Specific features of intercultural interaction in the course of teaching foreign languages	234
48.	Наргиза РАШИДОВА. Арабские заимствования в узбекском языке	237
49.	Ulugbek KARIMOV. Evolution of the cyborg in 21st-century science fiction	240
50.	Kamola ABDULLOEVA. Diskursiv shaxsning grafik vositalar orqali aks etishi	243
51.	Malohat BADALBAYEVA. The special lexicon of emergency situations in global linguistics	246
52.	Nargiza MIRZALIYEVA. Abdulla Qahhor va Ernest Xeminguey hikoyalari qahramonlarining o‘ziga xos xususiyatlari: badiiy tahlil va qiyosiy yondashuv	250
53.	Azizjon SHARIPOV. Yozma manbalarda Hirotning tarixiy toponimikasiga doir ma’lumotlar: Shohrux Mirzo davri	253
54.	Марина ИСКАКОВА. Тюркоязычный мир от древности	263
55.	Nargiza YUSUPOVA. The impact of artificial intelligence on comparative philology and translation studies	268
56.	Feruzaxon KARIMOVA. Aksiolingvistikada ma’naviy qadriyatlar talqini	272
57.	Zebiniso BEKMURADOVA. O‘zbek va fransuz maqollaridagi xiazmlarning stilistik, semantik va lingvokulturologik tahlili	276
58.	Sabohat QAHHAROVA. Yassaviy hikmatlarining lingvokulturologik tahlili	279
59.	Dildora KENJAYEVA. “Boburnoma”da antroponimlarning etimologik o‘ziga xosligi	283
60.	Gulchexra IBRAGIMOVA. Ingliz tilida abbreviatura va akronimlarning lingvistik tahlili	287
61.	Asror YUSUPOV. Lug‘at maqolasi strukturasi nazariyasining rivojlanishi	289

III SHO‘BA. QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI		
62.	Islamjan YAKUBOV. Rudakiy adabiy-estetik qarashlari va lirik qahramon kechinmalari	293
63.	Islamjan YAKUBOV. Tragik konflikt, tragik holat va tragik qahramon	299
64.	Dilnavoz YUSUPOVA, Kemal Yavuz ATAMAN. Uch tazkira qiyosi	308
65.	Gulnoz XALLIEVA, Sitora SHAHOBOVA. “Middlemarch” va “Anna Karenina” asarlarida ayol obrazining o‘rni	316
66.	Bahodir XOLIQOV. Britaniya adabiyoti va o‘zbek mifologiyasida daydi yog‘dularning badiiy xususiyatlari	320
67.	Gulnoz XALLIYEVA, Farangizbonu ADAMOVA. “Jek Raymond” romanida Jek obrazi tahlili	323
68.	Nuriddin ALTINBOYEV. Qiyosiy tahlilda tipologiya va ta’sir fenomeni	326
69.	Gulnoz XALLIYEVA, Iroda ABDULLAYEVA. The nature of satirical characters in the works of Jonathan Swift	330
70.	Mohinur SOTVOLDIYEVA, Gulnoz KHALLIEVA. The poetics and typology of father figures in world literature: a comparative study	333
71.	Xafiza KUCHKAROVA. Badiiy adabiyotda peyzajning o‘rni	336
72.	Dilafro‘z QAHNAROVA. Zamonaviy o‘zbek qissachiligi: xalq an’analari va yangi badiiy shakllar	340
73.	Elmira HAZRATQULOVA. Temuriylar davri adabiy muhitida ustoz-shogird munosabatlari	344
74.	Тоҳир ТУРДИБОЕВ, Нигора ЖЎРАЕВА. Бехбудий таълимотида ижтимоий-маърифий масалалар	347
75.	Ma’suma OVIDJONOVA. Ingliz va o‘zbek adabiyotida ilmiy fantastikaning narratologik asoslari	351
76.	Эльмира АДильБЕКОВА, Сўлтан САНИЯТ. Türk masallarında hayvan motifleri: geyik motifinin kültürel yansimalari	357
77.	Эльмира АДильБЕКОВА, Сая БЕРІКҚЫЗЫ. Türk-islam kimliginin sembolü olarak Носа Ahmet Yesevi türbesi	368
78.	Эльмира АДильБЕКОВА, Гүлнұр ЕСЕНГЕЛДІ. Караşaş Ана türbesi ve halk inançlarında kadın Evliya imgesi	375
79.	Дильфуза МАМЕТОВА, Малика ПРИСТАЕВА. Keloğlan ile padişahin kizi masalinin Anadolu, Uygur, Gagavuz varyantlarında kahraman ideali	383
80.	Карлыгаш БОРБАСОВА, Какимжан БИШМАНОВ, Мира БАЛТЫМОВА. Сравнительный анализ текстов Корана, Библии и Торы по проблеме межрелигиозного диалога и укрепления общенационального единства	394
81.	Улжан ТУНГАТОВА, Алуа АЛШЕР. Сравнительный анализ идей толерантности в Коране и Библии	400
82.	Ляззат АЛИЕВА, Möldir NIŞANHAN. Masalların mitolojik mirasi: şamanizm ve islam’in izleri	404

83.	Ынтымакгул НУРМАГОМБЕТОВА. Бейсенбай Кенжебаев зерттеулеріндегі қазақ және түркі әдеби мұраларының тарихи-филологиялық зерделенуі	412
84.	Saltanat YERALIYEVA. The writing of Khoja Akhmet Yasawi’s “Diwani hikmet” in turkic language	420
85.	Yorqinoy ISMONOVA. Bola timsolining roman obrazlari tizimidagi o‘rni	423
86.	Динара САЗАНОВА. “Диуани хикмет” мәтініндегі сопылық терминдердің рухани-философиялық мағынасы	427
87.	Шахноза КАРИМОВА, Жұлдыз МҮСІРКЕП. Akbura Evliya türbesi: türk-islam mimarisi ve halk inanci arasindaki bağ	433
88.	Bahodir ABSAMADOV. Shekspirning “Venetsiya savdogari” asarida komik adolat va axloqiy kinoya	440
89.	Ghalib ZEYAD. The evolution of Uzbek language, literature, and culture: the enduring legacy of Alisher Navai	445
90.	Axror QODIROV. O‘zbek qissachiligida xarakter va kolliziya: Qo‘Chqor Norqobil ijodi misolida XX–XXI asr badiiy talqinlarining evolyutsiyasi	451
91.	Мұратбек БАҒИЛА, Қанзада ЖҮБАНЫШЕВА. Тілді деңгейлік оқыту жүйесінің ғылыми негіздері	457
92.	Sevinchoy YOQUBOVA. G‘oyaviy-badiiy konsepsiya va poetik obrazlar hissiy tonalligi	461
93.	Munira KARIMOVA. The poetics of human and animal characters in Uzbek prose	472
<p>IV SHO‘BA. KOMPARATIVISTIKA VA METODIKA: TIL, ADABIYOT TA‘LIMI TIPOLOGIYASI</p>		
94.	Назаркул ИШЕКЕЕВ, Рима ЗАЙЫРКУЛОВА. Ааламдашуу доорунда медициналык багытта окуп жаткан чет элдик студенттерге «Манас» эпосу жана «Махабхарата» эпосундагы идеяларды салыштыруу менен тарбиялоонун мүмкүнчүлүктөрү	480
95.	Ирина ЯНОВСКАЯ. Формирование риторической компетенции в системе профессиональной подготовки студентов нефилологических специальностей	487
96.	Лариса БАСОВА, Светлана ДРАЧЕВА. Повышение качества обучения русскому языку в странах постсоветского пространства: опыт Тюменского государственного университета	490
97.	Айгул АЙТБЕНБЕТОВА, Нургул ЖОЛДАСОВА. Қазақ тілін оқытудағы цифрлық ресурстар: тиімділігі мен болашағы	494
98.	Muxabbat MATQURBONOVA, Umida YANGIBOYEVA. Ikki tillilik sharoitida o‘zbek tili ta‘limining komparativ tahlili	498
99.	Зулхумар ЖУМАНОВА. Роль алгоритмов в формировании навыков устной и письменной речи студентов	500
100.	Максим ЧИКОВ, Диляра ЗАРИПОВА. Проблемы подготовки специалистов в тройке языков русский-английский-узбекский и пути решения	504
101.	Раъно ИСАМУТДИНОВА. Система упражнений для развития навыков устной речи на занятиях по русскому как иностранному	509

102.	Зулфия КУРБАНОВА. Методика работы с текстом на занятиях по русскому как иностранному	513
103.	Nilufar BURIYEVA. Sun’iy intellekt vositalari asosida o’quvchilarning lingvokulturologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi	516
104.	Шахло УРИНОВА. Методика формирования лексической компетенции студентов в процессе изучения русского как иностранного	520
105.	Gulnoz MAMARASULOVA. Geopolitical meanings in media discourse	524
	V SHO’BA. КОМПАРАТИВИСТИКА YOSH TADQIQOTCHILAR NIGOHIDA	
106.	Saida SULTANOVA. Badiiy tarjimaga o’rgatishda an’anaviy va zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati	529
107.	Зухра МОЛДАБАЕВА, Айжан ЖАНҒЫЛЫШ. Коммуникативтік құзыреттілікті қалыптастырудағы инновациялық әдістер	533
108.	Barno ABDULLAYEVA. “Boburnoma”ning xorijiy tillarga tarjima qilinishi	539
109.	Zilola ERGASHEVA. The transformation of translation practices through artificial intelligence technologies	544
110.	Dilfuza ZOYIROVA, Aziza YORIQULOVA. Tarjima jarayonida ekvivalentlik tamoyilining an’anaviy talqinlari	547
111.	Anvar MIRZAQULOV. Ikkinchi jahon urushidan so’ng sinxron tarjimaning paydo bo’lishi va rivojlanishi	549
112.	Shuhrat MULADJANOV. Different approaches to the lingua-stylistic analysis in literary translation	552
113.	Gulshan ERGASHEVA. Tarjimashunoslikda an’anaviy va zamonaviy yondashuvlar: o’zbek va nemis tilidagi frazeologizmlar talqinida	555
114.	Dilnoza SHONAZAROVA. Xabarlar tarjimasi va lokalizatsiyasi	559
115.	Умида МУХАММАДИЕВА. Язык и культура: трудности перевода национально-культурных особенностей	562
116.	Gulnoza XUDAYQULOVA. Badiiy asarlarni tarjima qilishda uchraydigan ba’zi frazeologik muammolar	567
117.	Shoira XODJAYEVA. Bilvosita tarjimaning muammolari: an’anaviy va zamonaviy yondashuvlar	570
118.	Djamila BEGJANOVA. Paremiologik birliklar tarjimasida lingvokulturologik ekvivalentlik	573
119.	Shaxnoza IBRAGIMOVA. Linguistic representations of characters and peculiarities of translating their original names in “A farewell to arms”	577
120.	Fazilat XABIBULLAYEVA. Mumtoz adabiy manbalar tarjimasida: arxaik leksika jahon tarjimashunosligi kontekstida	580
121.	Maftuna RO’ZMETOVA. Fentezi adabiyoti tarjimasida madaniy konnotatsiyalarning ifodalanishi	584
122.	Maftuna SAPAROVA. “Al-qistosu-l-mustaqim fi ilmi-l-arud” asarining ingliz tilidagi tarjimasida xususida	588

123.	Zuhra ZOKIROVA. Jorj Oruel “Molxona” asaridagi satirik jumlar tarjimasining madaniy jihatdan moslashtirilganligi	591
124.	Mokhinur GELDIEVA. “Kecha va kunduz” romani inglizcha tarjimasida leksik-semantik hamda sintaktik o‘ziga xoslik	593
125.	Dilnoza OLIMOVA. Ritm va takorlash: “Alpomish” dostonining Qosimboy Ma’urov tarjimasida sintaktik-semantik transformatsiyalar	596
126.	Mohichehraxon ANVAROVA. Zamonaviy texnologik terminlarni tarjima qilish usullari	599
127.	Xosiyatxon QO‘CHQORALIYEVA. The role of Reynold Nicholson and John Arberry’s translation in the study of sufi literature	603
128.	Nargizaxon MIRAXATOVA. Dariy tilidagi ba’zi somatizmlar qatnashgan maqollarning o‘zbek tiliga tarjima qilish masalasi	606
129.	Munisa NAZIROVA. O‘zbek va ingliz tilidagi idiomalarning qiyosiy tarjimalari	609
130.	Муниса ТОШБОЕВА. Стратегии транскреации и адаптации политических реалий в узбекском цифровом медиадискурсе	612
131.	Mahliyo FAYZULLAYEVA. Sinxron tarjimada ekvivalentlik va muqobillik masalasi	615
132.	Достонбек АХМАДОВ. Первый шаг к академической истории перевода	618
133.	Sevinch MIRZALIYEVA. Badiiy tarjimada leksik-stilistik bo‘yoqdorlik muammolari	623
134.	Nozima QAYUMOVA. The impact of artificial intelligence on the translation process and the transformation of the translation profession	626
135.	Ситора ТУРСУНБОЕВА. Грамматические и лексические трансформации в художественном переводе	629
136.	Миннура ЮЛДАШЕВА. Об узбекских переводах произведений Чингиза Айтматова	633
137.	Раънохон ХОЛОВА. Роль невербальной коммуникации в синхронном переводе с русского на узбекский	636
138.	Aziza MAHAMMATOVA. Bilvosita tarjimada tarjimon mahoratining namoyon bo‘lishi	640
139.	Mashhuraxon MAHAMMADALIYEVA. Tarjimashunoslik: an’anaviy va zamonaviy yondashuvlar	644
140.	Nozima ABDURAHMONOVA. Tibbiy terminlarni tarjima qilishda so‘zma-so‘z va erkin yondashuvlarning o‘zaro ta’siri	646
141.	Azimjon AXMEDOV. Frazeologiya va frazeografiya tarixiga umumiy nazar	649
142.	Madinabonu OLLABERGANOVA. Comparative-methodology and typology in language and literature education	654
143.	Мўхаббат МАССАДИКОВА, Akerke ALTINBEKOVA. Masallarda toplumsal normlar bag‘lamida adalet ve ceza kavrami	657
144.	A’zamxon SOBITOV. Zoonimlarning etnolingvistik va madaniy konnotatsiyalari	665
145.	Vazira ABDIEVA. The essential role of intercultural communication competence in various fields	668

146.	Oyshajon USMONOVA. Structural and semantic aspects of legal terminology in the context of linguistic comparativism	670
147.	Diyora AKRAMOVA. The use of labor-related euphemisms in English and Uzbek linguistics	675
148.	Zebuniso FAYZULLAYEVA. Nemis va o‘zbek tillaridagi fe‘l mayllarining chog‘ishtirma tadqiqi	679
149.	Dilnoza NURULLAYEVA. Ma‘dan komponentli frazeologik birliklarda insonga xos xususiyatlar	683
150.	Dilorom KHURRAMOVA. Semantic features of mimetic words in Uzbek and Korean	686
151.	Munisa KARIMOVA. Ingliz fe‘llari aspektualligini belgilashda funksional-semantik yondashuv va harakat turlari (aktionsart)	690
152.	Gulzoda SUYUNOVA. The evolution of the verb “to be” from Proto-Indo-European to Proto-Germanic	693
153.	Temur ASHUROV. Realia as cognitive and linguocultural anchors in multilingual communication: towards a new integrative model	700
154.	Shahnoza NAZAROVA. O‘zbek va nemis tillarida tanqid nutqiy akti: lingvopragmatik xususiyatlar	703
155.	Shoxida NAZAROVA. Bilvosita nutqning pragmatik jihatlari	706
156.	Lobar RAHIMQULOVA. Ijtimoiy tarmoq matnlarini lingvistik tahlil qilishning ahamiyati	710
157.	Farrukh ABDUSAMATOV. How speech act theory (sat) is applied in discourse analysis	713
158.	Gulmira ERGASHEVA. Davlat boshqaruvi terminlari xususida ayrim ilmiy-nazariy qarashlar	717
159.	Nodira BEKMATOVA. The lexicon of the machine: decoding the new language of AI	720
160.	Munisa DUSTBERDIYEVA. Causative syntaxemes, the use of preposition “under”	724
161.	Nigora ISMATULLAYEVA. Globallashuv konseptining semantik qirralari	727
162.	Mahliyo JALISHOVA. Persuazivlik argumentatsiya va manipulyatsiya o‘rtasida: mediadiskursdagi kommunikativ-pragmatik jihatlari	730
163.	Ozoda QURBONOVA. O‘zbek tilida gidrometeorologik terminlar sinonimiyasi	733
164.	Guljahon RAHMATULLAYEVA. Ruhiiy holatlarni ifodalovchi leksik birliklarning semantik tarmoqlanishi	736
165.	Yulduz SATTOROVA. Siyosiy diskursda aforistik ifodalarning kognitiv qiyosiy tahlili: ingliz va o‘zbek tillari misolida	743
166.	Umida ELMURATOVA. O‘zbek va koreys tillarida shaxs konseptosferasining periferik birliklari	746
167.	Nafosat RAIMOVA. Ijtimoiy chegaralangan leksikaning struktur va semantik xususiyatlari	749
168.	Dilnura YULDASHEVA. Ingliz tilidagi ayrim siyosiy terminlarning etimologik tahlili	751

169.	Maftuna AZIMOVA. Language, context, and intention: a linguapragmatic analysis of code-switching in Uzbek-English conversations	754
170.	Samira RAXIMOVA. Konseptual metaforalar milliy tafakkurning aks-sadosi sifatida: ingliz va o‘zbek tillarining qiyosiy tahlili	759
171.	Gulrom ABDULLAYEVA. Koreya va o‘zbek madaniyatida ota-onaga sadoqat tushunchasining lingvokulturologik tahlili	764
172.	Мубинабону МАМАЛАТИПОВА. Этимология русских числительных	766
173.	Durdona XO‘JAMURODOVA. Lingvistik komparativistikaning taraqqiyot omillari	771
174.	Зохида КИЛИЧЕВА. Отражение общественной жизни в романе А. С. Пушкина «Евгений Онегин»	774
175.	Zilola ISLOMOVA. Ingliz va o‘zbek tillarida qo‘shma so‘zlar yasalishi	780
176.	Nasiba JUMAeva. Literary representation of globalization challenges in contemporary Turkish fiction	785
177.	Gulhayo ORTIQOVA. Charlz Dikens ijodida ramziylik, an’analar va ma’naviy munosabatlarning aks etishi	787
178.	Malohat AYDARALIYEVA. XX asr G‘arb va Sharq adabiyotida ayol obrazi tasvirlanishining o‘ziga xos jihatlari	790
179.	Bahora ABDIYEVA. XVI asrga oid nemis masallari tahlili hamda ularda hasad, ochko‘zlik, beodoblik va sabrsizlik kabilarning tasviri	793
180.	Мунаввара ХАСАНОВА. Проблема нравственного совершенствования личности в творчестве Л. Н. Толстого	795
181.	Shahnoza IKROMOVA. Eastern and Western mentality: a structural comparison of “Mehrobdan chayon” and “Pride and prejudice”	800
182.	Umida PIRNAPASOVA. Functional approach to teaching language	804
183.	Maftuna ASKAROVA. Kognitiv tamoyillar nazariyasining shakllanishi	807
184.	Dilnoza SHONAZAROVA, Gulchehra YO‘LDASHEVA. Maktabgacha ta’limda elektron doska orqali ingliz tilini o‘rgatish samaradorligi	811
185.	Abdurauf BOZOROV. A comparative analysis of pedagogical models focusing on the transition from traditional to digital methodologies	815
186.	Айдана ҚУАНЫШ. Ертегілердегі диалог құрылымының стилистикалық ерекшелігі	818
187.	Shirinoy YAKHSHIMURATOVA. The method of cross-cultural comparison in foreign language lessons	826
188.	Sevinch XUDOYBERDIYEVA. Constructive and behavioral methods in teaching English as a second language	829
189.	Зухра МОЛДАБАЕВА, Нурсая КАДЫРОВА. Қазақ тілін оқытудағы тілдік орта мен мотивация факторы	832
190.	Aziza JALOLOVA. Chet tilini o‘qitishda talabalarning tarjima ko‘nikmalarini rivojlantirishda interfaol usullarning roli	836
191.	Инобатхон УМАРОВА. Роль когнитивистики в обучении русскому языку узбекских студентов	839
192.	Mubina GANIYEVA. Comparative analsis of speech etiquette in hisrorical and modern educational contexts	844

193.	Гулсевар САИДОВА. Языковые особенности творчества А. С. Пушкина и их использование в преподавании ТРКИ	846
194.	Садокат ОЛИМЖОНОВА. Изучение творчества А. С. Пушкина в преподавании русского языка как иностранного	853
195.	Sokina IRISBAYEVA. Moral and ethical values in Uzbek and English proverbs: a comparative study	860
196.	Музаффар ХОДЖАХАНОВ. Структурный и синтаксический анализ терминов статистики в английском и русском языках	864
197.	Shahnozabonu NEMATOVA. The Interconnection Between Gender and Language: A Historical and Sociolinguistic Perspective	866
198.	Мохира ЭШКУВАТОВА. Роль грамматического комментария в преподавании русского как иностранного	870
199.	Nazokat G‘offorova. Zulfiya she’rlari tarjimasida metaforalar tarjimasining o‘ziga xos xususiyatlari	873
200.	Адолат Бобо-Хожаева. Тюркские заимствования в русском языке: пространство билингвизма и историческая перспектива	877